

**Islomova Odina Abduhomid qizi**

SamDU Kattaqo'rg'on filiali

2 bosqich talabasi

[oislomova05@gmail.com](mailto:oislomova05@gmail.com)

---

## **XALQ PEDAGOGIKASIDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

**ANOTATSIYA:** Ushbu maqolada xalq pedagogikasida tarbiyaviy jarayonlar ularni tashkil etish shakillari ,ahamiyati tarbiyada mehnatning o'rni va vazifasi, hozirgi zamon yoshlariga tarbiya berishda xalq pedagogikasi manbalarini oshirish borasida so'z boradi .

**KALIT SO'ZLAR:** Tarbiya tarbiya usullari va xususiyatlari , xalq pedagogikasi, tarbiya turlari , mehnat tarbiyasi, kasb -hunarga o'rgatish, xalq og'zaki ijodi, globallashuv.

---

Xalq pedagogikasi -millatning tabiyaviy tajribalari,qadriyatları urf -o'datlari va an'analarining jamlamasi bo'lib ,asrlar davomida shakllangan tarbiya usullarini

o'zida mujassam etadi . Mehnat tarbiyasi esa xalq pedagogikasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki u insonning hayotga moslashuvi , kasbiy ko'nikmalari va shaxsiy ma'sulyatini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi . Bu ikki jumla xalq pedagogikasi va mehnat tarbiyasi azal -azaldan insonlar ongi va hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda ,shuningdek yoshlar turmush tarzida va davlatimiz islohatlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan qadimda O'RTA OSIYODA keng tarqalgan Zardushtiylik dinida ham mening e'tiborimni tortgan jumla barcha ezgu ishlar zamirida mehnat ko'zda tutilishi qayd etiladi. Hozirgi kunda esa davlatimiz qator islohatlarni amalga oshirmoqda bu islohatlarning eng katta qismi yoshlar bandligini taminlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin .Prezidentimiz aytganlaridek dunyo miyosida raqobat yanada kuchayib boradigan o'ta murakkab bir davrda yashaydigan bolalarimizni kelajakka tayyorlab , sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish talim -tarbiya sohasi o'qituvchi mehnatini tashkil etadi.Anashu o'tkir haqiqatni hisobga olib ,davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi borasida olib borgan islohotlarini qarab o'tishimiz mumkin TARBIYA maqsadga qartilgan uzlucksiz jarayon sifatida , tor manoda va keng manoda ishlataladi ,u shaxsning manaviy axloqiy sifatlarini shakllantirish, duyoqarashini va xulq -atvorini tarkib topdirish jarayoni . Tarbiya eng qadimgi tushuncha bo'lib , insoniyat paydo bo'lgandan boshlab paydo boladi CHunki tarbiya insonga insoniyligini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi .

### **1 AXLOQIY TARBIYA**

### **2. AQLIY TARBIYA**

### **3 JISMONIY TARBIYASI**

### **4 MEHNAT TARBIYSI**

### **5 EKOLOGIK TARBIYA**

### **6IQTISODIY TARBIYA**

## 7 ESTETIK TARBIYA

Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan usullari quyidagilardan iborat

1 AMALIY O'RGATISH ota-onalar bolalarini hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish uchun ishni amalda bajarishni ko'rsatishgan. Masalan , qizlarni tikuvchilik tayyorlashga o'gil bolalarni esa dehqonchilik yoki hunarmandchilikka yonaltirishgan

2 O'RNAK KORSATISH Yoshi kattalar bolalarga o'z menhatsevarliklari orqali o'rnak bo'lishgan . Bu orqali bolalar mehnatning qadri va natijasini tushunishni o'rganganlar

3 RAG'BATLANTIRISH yaxshi bajarilgan ish uchun maqtov yoki kichik

sovg'alar berish orqali bolalarning mehnatga qiziqishini oshirish usulidan foydalanilgan.

4 XALQ OG'ZAKI IJODI maqol va matallar dostonlar orqali mehnatning

qadriyat ekanligi targ'ib qilingan . MASALAN mehnat unutmadi,mehnat odamni

kabi hikmatli so'zlar mehantning ahamiyatini aks ettiradi.XALQ OG'ZAKI IJODI

sifatida buyuk bobokolonimiz IBN SINO o'zining TIB QONUNLARI asarida mehnatni sog'lom hayotning muhim omillaridan biri deb bilgan .U jismoniy faoliy organizmdagi tabiy jarayonlarni faollashtiradi ,qon ayalnishini yaxshilaydi va kasalliklarning oldini oladi deb hisoblagan .QUYIDA IBN SINONING asosiy fikrlari yoritiladi : .

### 1 MEHNAT VA SALOMATLIK

### 2 MEHNAT VA AXLOQIY BARKAMOLLIK

### 3 MEHNAT VA IJTIMOIY AHAMIYAT

4 MEHNATNI ME'YORDA BAJARISH kabi uning fikrlari bugungi kun Sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmagan , ayniqla mehnat va dam olishning sog'lom nisbati haqidagi qarashlari zamonaviy hayot tarziga mos keladi. SHuningdek yuqoridagi misollardan ko'rib o'tishimiz mumkinki demak Qadimdan mehnat qurollaridan foydalanish bronza davridan asta sekin tosh qurollardan voz kechilib ,mehnatni tog'ri tashkil etish takomillasha boshladi, shundan so'ng qabila boshliqlari urug'chilik tizimida birlasha boshlashdi.

Xalq hoyotida globallashuv jarayoni vujudga keldi bu degani ishchi kuchi ya'ni mehnat boziri va ish sharoitlari global miqyosda o'zgarishi va integratsiyasi

natijasida yuzaga keladi. Globallashuv mehnat tarbiyasida quyidagi asosiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

1ISHCHI KUCHINING GLOBAL harakatchanligi rivojlangan davlatlar ishchi ishchi kuchi yetishmivchilagini qoplash uchun rivojlanayotgan davlatlardan kadrlarni jalb qilmoqda .

2 MEHNAT BOZORINING RAQOBATLASHUVI NATIJASIDA xalqaro rivojlanayotgan davlatlarda arzon kampaniyalar arzon ishchi kuchidan foydalanmoqda.

3 TEXNOLOGIYALR TA'SIRI VA AVTOMATLASHTIRISH raqamli Texnologiyalar rivojlanishi natijasida masofaviy ishslash va freelancing ommalashmoqda

4 YANGI IQTISODIY VA MADANIY ALOQALAR milliy chegaralar asosida kampaniyalar va ishchilar o'rtasida aloqlar kengaymoqda .

Bu xalq pedagogikasi birligina bu sohalar bilan emas boshqa fanlar va davlat Siyosati bilan integrasiyaga kira oladi demak bular ;

1Xalq og'zaki ijodi

2 Diniy ilmlar

3 Buyuk mutafakkirlar asarlari

4Xalq amaliy san'ati

5 Milliy qog'irchoqlar

6 Milliy o'yinlar

7 Milliy rassomchilik

8 Diniy ta'limot

9 Tarixiy me'moriy obidalar va boshqalar .

Xalq pedagogikasini o'rganish obyektlarida asosiy jihatlar tarbiya va uni tashkil etishdan iborat. Har bir obyektlarda tarbiyani tashkil etishda mehnat omili kuchli ekanligi borasida so'z boradi. Mehnat tarbiyasi -tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi hamma mehnat turlaridan oldin paydo bo'lgan bo'lib u xalq amaliy san'atida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat tarbiyasini tashkil qilishda xalq amaliy san'atining ahamiyati ;

1.Xalq amaliy san'ati orqali bolalarda mehnat faoliyatini, shu bilan birlgilikda ijodiy faoliyatni shakllantiradi

2.Xalq amaliy san'ati orqali bolalarda mehnat faoliyatini tashkil qilishda sabirlilik, sinchkovlik kabi sifatlarni qaror toptirishga hizmat qiladi.

Mehnat tarbiyasini tashkil qilishda sharq mutaffakirlari asarlarida mehnat tarbiyasining ahamiyati.

Sharq tarbiyasida asosiy mehnat tarbiyasi bo'lganligi uchun Ibn Sino mehnat tarbiyasini alohida tarbiya sifatida, Ahmad Al -Farg'oniy esa insonning kelajagini belgilovchi omil sifatida baholaydi.

Mehnat tarbiyasida xalq o'yinlari bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga hissa qo'shish bilan birga, ularga turli mehnat ko'nikmalarini o'rgatadi. Ushbu o'yinlar bolalarni kichik yoshdan turli kasb-hunarlariga, jamoada ishslash mas'uliyatni his qilishga tayyorlaydi. Ular quyidagilarga bo'linishi mumkin:

Mehnatsevarlikni rivojlantirish: o'yinlarda mehnatga oid elementlarning bo'lishi bolalarni harakat qilishga , biron maqsadga intilishga undaydi.Masalan "Tuproq chopish", "Paxta terish" kabi o'yinlar bolalarni mehnatga tayyorlaydi.

Ko'nikmalarni shakllantirish:O'yin jarayonida bolalar aniq harakatlarni bajarish orqali kasbiy va jismoniy ko'nikmalarni rivijlantiradi.Masalan "bo'g'irsoq pishirish" kabi o'yinlar orqali oshpazlikka oid dastlabki qadamlar o'rgatiladi.

Jamoaviylik va hamkorlikni o'rgatish xalq o'yinlari:Ko'p xalq o'yinlari jamoaviy harakatlarni talab qiladi,bu esa bolalarni birgalikda ishlashga, muloqat qilishga va o'zaro yordamga o'rgatadi

Tabiat va mehnatga mehir uyg'otish:O'yinlarda tabiat bilan bog'liq elementlar, masalan, yerga g'amxorlik qilish, hosil yetishtirish mavzulari aks etgan bo'lsa, bu bolalarda tabiatga mehr-muhabbat uyg'otadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi shaxsning ma'naviy-amaliy jihatdan kamol topishida muhim o'rinn tutadi. Mehnat sevarlik, mas'uliyat, sabr-toqad va o'z kuchiga ishonch kabi fazilatlarni shakillantirish orqali insonning hayotga tayyorlanishiga hissa qo'shadi. Asrlar davomida xalq pedagogikasi amaliy o'rgatish, o'rnak ko'rsatish va og'zaki ijodiy vositalar orqali mehnatning ahamiyatini targ'ib qilib kelgan. Bugungi kunda ham xalq pedagogikasining bu boy tajribasidan foydalanish dolzarbligini yo'qotmagan. U yosh avlodni sog'lom dunyo qarashga ijtinoiy mas'uliyatga va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishga undaydi. Shu sababli mehnat tarbiyasining qadriyatlarini zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish va uni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi

Mehnat tarbiyasini shaxsda qaror topdirish bilan faqatgina jismoniy emas, balki o'z o'rnida axloqiy, insoniy sifatlarini qaror topdirish uchun asosiy vosita hisoblanadi.Oddiy jihat bo'lib ko'rinyotgan mehnat tarbiyasi insonlarning ertangi kuni, kelajak istiqbolini jamiyatda tutgan o'rmini turli yod fikrlardan uzoqlashishini u o'zini anglashi o'z-o'zini baholashi joiz bo'lsa o'z-o'zini rivojlantirishning bosh omili sifatida qarash mumkin.Shuning uchun bolani tarbiyalashda unga kichik yoshidan milliy o'yinlar, milliy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlar qisqa qilib aytganda xalq pedagogikasida ham foydalanish samarali vosita bo'lib xizmat qilish mumkin.

Mehnat tarbiyasi insonni yangi g'oyalar yaratishga va ijodkorlik ko'rsatishga undaydi.Amaliy ishlar orqali odamda tafakkur va qobilyat rivojlanadi.Bu tarbiya insonni halollik adolat, qat'iyat va fidoyilik kabi fazilatlarga o'rgatadi. Mehnat jarayonida inson mashaqqatlarni yengib , o'z maqsaiga intilish orqali kuchli ma'naviy asosga ega bo'ladi . Jamoviy mehnat insonni boshqalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi .bu esa uning jamiyatda ijtimoiylashuvni va jamaa azosi sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega .Qanchalik ko'p mehnat qilgan inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarga ega qiladi .Mehnatsevar odam mustaqil bo'ladi va o'z hayotini boshqalar hayotiga qaram bo'limgan holda qura oladi .Mehnat tarbiyasi inson hayotida nafaqat moddiy barqarorlikni ta'minlaydi' balki uni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlantiradi.

Mehnatni qadrlash,unga hurmat bilan qarash va ma'sulyat bilan yondashish nafaqat insonning shaxsiy muvaffaqiyatiga , balki jamiyat taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.Shu bois mehnat tarbiyasini bolalikda boshlab shakllantirish va uni hayotning barcha bosqichlarida davom ettirish zazrur.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. — T.: « 0 'zbekiston». 1993
2. I.M.Mutalipova "Xalq pedagogikasi" o'quv qo'llanma. - T.: "Fan va texnologiya" 2015
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: « 0 'zbekiston», 2000.
4. Maqola: "Ilk etnopedagogik fikrlar va xalq pedagogik tafakkuri taraqqiyoti"  
<https://azkurs.org/ilk-etnopedagogik-fikrlar-va-xalq-pedagogik-tafakkuri-taraqqiyot.html>
5. Maqola: "Entopedagogikaning jamiyatdagi o'rni" <https://dragonlist.pl/esYzldEcvR/>
6. ODINOY ZIYOVUDDIN QIZI Mamarasulova O'quvchilarga mehnat tarbiyasini singdirish
7. NAZAROV .S. Xalq pedagogikasi asoslari Samarqand ilm ziy nashriyoti 2017